

TAYANCH O'RTA TA'LIM O'QUVCHILARNING ADABIYOT DARSLARIDA OG'ZAKI VA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Urinova Zumradxon Ilyosjon qizi,

QDU Magistranti

G-mail: zumradxonurinoval90@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada tayanch o'rta ta'lim bosqichida adabiyot darslari orqali o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari yoritilgan. Adabiyot darsliklarida berilgan topshiriqlar tahlil qilinib, ularning o'quvchilarda nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishdagi ahamiyati ko'rsatib berilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar yordamida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, matn tahlili hamda ijodiy yozish ko'nikmalarini rivojlantirish yo'llari tavsiflangan.

Kalit so'zlar: adabiyot ta'limi, og'zaki nutq, yozma nutq, nutqiy kompetensiya, interfaol metodlar, badiiy matn, ijodiy tafakkur, kompetensiyaviy yondashuv.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методические основы развития устной и письменной речи учащихся на уроках литературы в системе базового среднего образования. Проанализированы задания, представленные в учебниках литературы, и показана их роль в формировании речевых компетенций учащихся. Также описаны пути развития навыков самостоятельного мышления, анализа текста и творческого письма с использованием современных педагогических технологий и интерактивных методов обучения.

Ключевые слова: литературное образование, устная речь, письменная речь, речевая компетенция, интерактивные методы, художественный текст, творческое мышление, компетентностный подход.

Annotation. This article discusses the theoretical and methodological foundations of developing students' oral and written speech through literature lessons at the lower secondary education level. The tasks presented in literature textbooks are analyzed, and their role in forming students' communicative competencies is highlighted. Furthermore, the article describes ways of enhancing students' independent thinking, text analysis, and creative writing skills through the use of modern pedagogical technologies and interactive teaching methods.

Keywords: literature education, oral speech, written speech, communicative competence, interactive methods, literary text, creative thinking, competency-based approach.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning kompetensiyalarini shakllantirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, adabiyot darslari o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish uchun keng imkoniyat yaratadi. Badiiy asarlarni o'qish, tahlil qilish, qahramonlarga munosabat bildirish, voqealarga baho berish jarayonida o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifodalashni o'rganadilar. So'nggi yillarda umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun yaratilgan adabiyot darsliklarida kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan topshiriqlar soni ortib bormoqda. Bu topshiriqlar o'quvchilarning nafaqat bilimini, balki nutqiy faoliyatini ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Adabiy ta'limda kompetensiyaviy yondashuv badiiy matnni tahlil qilish, qiyoslash, baholash va mustaqil fikr bildirish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, adabiyot darslarida o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini rivojlantirish masalasi zamonaviy metodikaning muhim yo'nalishlaridan biridir.

5–7-sinf “Adabiyot” darsliklari (2022–2024) tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularda o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi keng qo‘llanilgan. Xususan, qahramonlarni tavsiflash, matnni qayta hikoyalash, esse va ijodiy matn yozish kabi topshiriqlar o‘quvchilarda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Z. Mirzayeva va K. Jalilov, shuningdek, Q. Yo‘ldosh va M. Yo‘ldoshlarning metodik ishlarida adabiyot o‘qitishning kompetensiyaviy yondashuvi, badiiy matn ustida ishlash texnologiyalari hamda o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish masalalari keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotlarda adabiyot darslari nutqni rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda adabiyot darslari jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish masalasini o‘rganishda kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy asosini kompetensiyaviy yondashuv, kommunikativ metodika hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar tashkil etadi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi: ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, darsliklar va o‘quv topshiriqlarini o‘rganish hamda umumlashtirish. Shuningdek, adabiyot darslarida qo‘llaniladigan interfaol metodlar samaradorligi pedagogik kuzatish asosida tahlil qilindi.

Tadqiqotda sifatli (qualitative) yondashuv ustuvor bo‘lib, o‘quvchilarning nutqiy rivojlanish jarayoni, ularning ijodiy va mustaqil fikrlash ko‘nikmalari o‘rganildi. Natijalar adabiyot darslarida nutqni rivojlantirishning samarali metodlarini aniqlashga xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. Og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishning nazariy asoslari

Nutq inson tafakkurining mahsuli bo‘lib, uning rivojlanishi shaxsning intellektual kamolotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Pedagogik va metodik adabiyotlarda og‘zaki hamda yozma nutq o‘quvchilarning kompetensiyasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida talqin qilinadi. Og‘zaki nutq o‘quvchilarning muloqot qilish, fikr almashish va munozara yuritish malakalarini rivojlantirsa, yozma nutq fikrlarni mantiqiy va izchil bayon qilish ko‘nikmasini shakllantiradi. Adabiyot darslarida nutq rivojlantirishning asosiy vositasi badiiy matn hisoblanadi. Matn ustida ishlash jarayonida o‘quvchilar lug‘at boyligini oshiradi, yangi badiiy tasvir vositalarini o‘zlashtiradi va ularni amaliy nutqda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Matn asosida qayta hikoyalash, munozara, bahs, ijodiy yozuv va esse yozish kabi topshiriqlar nutqiy kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi.

Adabiyot darsliklaridagi topshiriqlar tahlili

2020–2025-yillarda foydalanishga tavsiya etilgan 5–9-sinf adabiyot darsliklarida o‘quvchilar nutqini rivojlantirishga xizmat qiluvchi topshiriqlar keng o‘rin olgan. Jumladan: asar qahramonlariga tavsif berish; matn mazmunini qayta hikoyalash; muallif pozitsiyasini izohlash; qahramonlar xarakterini qiyoslash; berilgan mavzu asosida esse yozish; bahs-munozara tashkil etish; ijodiy matn yaratish.

Masalan, 5-sinf adabiyot darsligida xalq og‘zaki ijodi namunalarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarga ertak qahramonlari haqida fikr bildirish, voqealar ketma-ketligini hikoya qilish topshiriqlari berilgan. Bu topshiriqlar og‘zaki nutq rivojiga xizmat qilasa, loyha ishi sifatida keltirilgan ertak to‘qish topshirig‘i bevosita guruh bo‘lib ishlash va yozma nutqni rivojlantirishga xizmat qiladi.

7-sinf adabiyot darsligida adabiy qahramonlar xarakterini tahlil qilish, muallif g‘oyasini izohlash va mustaqil xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan savollar uchraydi. Mazkur topshiriqlar tanqidiy fikrlash va mantiqiy bayon ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Og‘zaki nutqni rivojlantirish metodlari

Adabiyot darslarida quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. “Aqliy hujum” metodi. O‘quvchilar badiiy asar mazmuni yuzasidan erkin fikr bildiradilar.

2. “Klaster” metodi. Qahramon xarakterini tavsiflashda tushunchalar tizimi yaratiladi.

3. “Debat” texnologiyasi. O‘quvchilar muayyan masala yuzasidan dalillar asosida fikr himoya qiladilar.

Mazkur metodlar o‘quvchilarning dialogik va monologik nutqni rivojlantirishda samarali hisoblanadi.

Yozma nutqni rivojlantirish metodlari

Yozma nutqni rivojlantirish uchun quyidagi topshiriqlar tavsiya etiladi:

Esse yozish; insho yozish; qahramonga maktub yozish; matnni davom ettirish; muallif fikriga munosabat bildirish; taqriz yozish; adabiy kundalik yuritish ushbu topshiriqlarning hammasi yangi yaratilgan darsliklarimizda o‘z aksini topgan.

Masalan, Abdusaid Ko‘chimovning “Boychechak” hikoyasi yoki G‘afur G‘ulom asarlarini o‘rganishda o‘quvchilarga “Agar men qahramon o‘rnida bo‘lganimda...” mavzusida esse yozdirish ijodiy tafakkurni rivojlantiradi.

Interfaol texnologiyalarning ahamiyati

Raqamli ta’lim muhiti va interfaol texnologiyalar nutq rivojlantirish samaradorligini oshirmoqda. Multimedia vositalari, taqdimotlar, videolavhalar va elektron resurslar yordamida o‘quvchilarning mavzuga qiziqishi ortadi. Elektron platformalarda ijodiy topshiriqlar bajarish, matn tahlili va onlayn munozaralarda ishtirok etish nutqiy kompetensiyalarni yanada mustahkamlaydi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga va muloqot madaniyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xulosa. Adabiyot darslari tayanch o‘rta ta’lim o‘quvchilarining og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Darsliklarda berilgan matnlar va topshiriqlar o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Og‘zaki nutqni rivojlantirishda munozara, debat, rolga kirish kabi metodlar, yozma nutqni rivojlantirishda esa esse, insho va ijodiy yozuv topshiriqlari samarali natija beradi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash esa nutqiy faoliyatni rivojlantirish

jarayonining samaradorligini oshiradi. Shuning uchun adabiyot darslarida kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning fikrlash, muloqot qilish va mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Adabiyot. 5-sinf. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. Toshkent-2024
2. Adabiyot. 7-sinf. Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun darslik. Toshkent-2022.
3. Zulxumor Mirzayeva , Komil Jalilov .O'zbek adabiyoti o'qitish metodikasi. Toshkent-2024.
4. Qozoqboy Yo'ldash , Muhayyo Yo'ldosh . O'zbek adabiyotini o'qitish metodikasi. Toshkent-2022.

